


**JIZZAX VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**JIZZAX VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI
2025-YIL YANVAR-FEVRAL OYLARIDA
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




**Tel.: 72-221-51-13
www.jizzaxstat.uz**

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


(2025-yil 1-mart holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 2 142 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 638 tasi faoliyat (ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 29,8 % i) Jizzax shahriga, 376 tasi (17,6 % i) Sharof Rashidov tumaniga, 227 tasi (10,6 % i) G'allaorol tumaniga, 213 tasi (9,9 % i) Zomin tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami faoliyat yuritayotgan



Jami yangi tashkil etilgan



376	Sharof Rashidov	14
227	G'allaorol	1
213	Zomin	5
638	Jizzax shahar.	27
115	Baxmal	4
114	Forish	3
87	Zarbdor	
100	Paxtakor	4
73	Do'stlik	1
58	Arnasoy	
60	Mirzacho'l	1
48	Zafarobod	
33	Yangiobod	2

● ● Faoliyat yuritayotgan


Yangi tashkil etilgan

Jizzax viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025- yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4 484,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan* bo'lib, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 104,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




mlrd. so'mda FHI, % da

**Yashirin iqtisodiyotni hisodga olgan holda*



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, shahar va tuman kesimida


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (6 160,1 ming so'm), G'allaorol tumani (10 259,0 ming so'm) hamda Paxtakor tumanida (3 334,9 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2 945,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



*Yashirin iqtisodiyotni hisodga olgan holda


Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 4 348,4 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 97,0 % ni tashkil etdi.



2025 - yilning yanvar-fevral oylarida viloyati jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush G'allaorol tumani (46,6 %), Jizzax shahri (26,7 %), Paxtakor tumani (6,1%), Do'stlik tumani (3,4 %) hamda Sharof Rashidov (3,2 %) tumani hissasiga to'g'ri keldi.



Shuningdek o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Forish (123,0 %), Yangiobod (118,7 %), hamda Sharof Rashidov (116,9 %), tumanlarida kuzatildi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, shahar va tuman kesimida

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2025- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 34,9 mlrd. soʻm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 0,8 % ga toʻgʻri keldi.



*Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning
jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi*



mlrd. soʻmda

FHI, % da


Ishlab chiqaradigan sanoat hududlar kesimida

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi* 4 348,4 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 97,0 % ni tashkil etdi.



Sanoat ishlab chiqarishi hajmi,
yanvar-fevral oylarida mlrd. so’mda



Sanoat ishlab chiqarishi FHI,
yanvar-fevral oylarida % da




mlrd. so'mda


FHI, % da

*Yashirin iqtisodiyotni hisodga olgan holda

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab
chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,5 % ni (2024- yilning yanvar-fevral oylarida oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 60,7 % (65,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 8,8 % (8,1 %), quyi texnologiyali 27,5 % (23,5 %) ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab sohasining ulushi - 61,2% (2024- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,8% to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 14,0 % (2024- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,9 % oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 11,1 % (2024- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 105,9 %) ni tashkil etdi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,0 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 107,8 % ni tashkil va ishlab chiqarish hajmi 494,6 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,1 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,7 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 3,7 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,2 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 109,3 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 546,0 mlrd. so'm ga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar-fevral oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,8 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 81,1 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 81,6 mlrd. so'm ga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2025- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,1 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 58,6% ni hamda ishlab chiqarish hajmi 48,1 mlrd. so'mni tashkil etgan.




Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish-

2025-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 57,7 %, fizik hajm indeksi 102,8 % i tashkil etdi, hamda ishlab chiqarish hajmi 2 589,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 61,4 % ni fizik hajm indeksia esa 0,0 ni tashkil etdi, hamda ishlab chiqarish hajmi 2 005,2 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2025- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi 132,6 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 33,7 mlrd. so'm kuzatildi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – “toza metallardan aralashmasiz” buyumlar ishlab chiqarish (jumladan, ehtiyot qismlari, konteynerlar va moslamalar), odatda statsionar, faqat elektr, elektron yoki optik asboblardan uchun radiopriborlar, uzatish moslamalari kabi, ko'rsatilgan metallar (ba'zida boshqa metallar bilan) va ancha murakkab birikmalar qotishmalarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,1 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 98,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 47,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, shahar va tumanlar kesimida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiya-sini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 77,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,7 % ini) tashkil etgan.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-fevral	2025- yil yanvar-fevral
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	39 610,1	53 725,5
Gazsimon yonilg'ini, quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	23 015,8	23 791,2

** 2025-yil yanvar-fevral oylari uchun ishlab chiqarish xajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

2025-yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,1 mlrd. so'mga oshganligi kuzatildi.




** tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra*

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish, shahar va tumanlar kesimida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 24,1 mlrd. so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % iga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 152,8 % ga oshganligi kuzatildi, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 3,0 m. ga oshganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-fevral	2025- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta , ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	8 622,3	17 727,0	9 104,7
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	1 973,0	6 347,8	4 374,0




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 948,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib*, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 21,2 % ni tashkil etdi. 2024- yilning yanvar-fevral oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 18,1 % ni tashkil etgan.


yanvar-fevral oylarida
mlrd. soʻmda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining
jami sanoat ishlab chiqarish
hajmidagi ulushi



yanvar-fevral oylarida
ulushi, % da



Jizzax sh.	25,4
312,2	
Yangiobod	100,0
17,2	
Arnasoy	100,0
50,0	
Sharof Rashidov	100,0
145,0	
Baxmal	100,0
15,7	
Zarbdor	68,7
17,3	
Forish	65,0
75,8	
Zomin	37,7
48,3	
Mirzachoʻl	25,0
12,2	
Paxtakor	15,5
42,1	
Doʻstlik	12,4
19,0	
Zafarobod	35,3
47,6	
Gʻallaorol	1,2
22,8	

Navoiy

● mlrd. soʻmda

Ulushi, % da

*Yashirin iqtisodiyotni hisodga olgan holda